



EHTIYOT CHORALARI MAVZUSI YUZASIDAN XORIJIY DAVLAT QONUNCHILIGI BILAN TAHLIL, XORIJIY DAVLAT MISOLIDA ITALIYA DAVLATI

Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : sevinchbonu487sv@gamil.com

Birinchi o'rinda ehtiyot chorasi bizga nima uchun kerakligi ya'ni maqsadiga aniqlik kiritsak. O'zbekiston Respublikasi JPKning 236-moddasiga ko'ra³⁸, ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvchidan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashning oldini olish, uning bundan keying jinoyat faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu kodeksning 237-moddasiga³⁹ ko'ra ehtiyot chorasining quyidagi turlari bor: tilxat, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi, garov, uy qamog'i, qamoqqa olish, harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish. Shuning bir muhim qoidani yodda tutishimiz kerakki, bir shaxsga bir vaqtning o'zida shu ehtiyot choralarning faqat bittasi qo'llanilishi mumkin.

Italiya Criminal Procedure Codening 273-moddasiga ko'ra, shaxsni jinoyat sodir etgan deb hisoblash uchun jiddiy asoslar bo'lishi kerak, agar javobgarlikni istisno qiluvchi yoki jazodan ozod qiluvchi sabablar bo'lsa ehtiyot choralari qo'llanilmaydi. Italiyada ehtiyot choralari qo'llanilishi uchun bir necha asoslar bo'lishi kerak. 274-moddaga ko'ra quyidagi asoslar: dalillar yig'ish yoki ularning haqiqiylikiga real xvf tug'ilganda; ayblanuvchi qochgan bo'lsa yoki qochishining real xavfi mavju bo'lsa, shaxsning qurolli yoki og'ir zo'ravonlik, yoki shunga o'xshash yangi jinoyatlarni sodir etish xavfi bo'lsa. Shuningdek 275-moddaga ko'ra sudya bu choralarda birini tanlayotganda ushbu holatlarda ehtiyot choralari qo'llanilishi mumkin.

Qamoqqa olish ehtiyot chorasi qachon qo'llaniladi: O'zbekiston jpkning 242-moddasiga ko'ra⁴⁰ qamoqqa olish jkning 3 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, natijada Jkning 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlarga qo'llaniladi. Agar ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanda, ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxshi aniqlanmasa, ilgari qo'llanilgan

³⁸ <https://lex.uz/docs/-111460>

³⁹ <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=237%2Dmodda.%20Ehtiyot,qo%CA%BBllanilishiga%20yo%CA%BBI%20qo%CA%BByiladi.>

⁴⁰ <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=242%2Dmodda.%20Qamoqqa%20olish>

ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganda, ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchii O'zb resda doimiy yashash joyiga ega bo'lmasa, jinoyat ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash davrida sodir etilsa qamoqqa olish ehtiyot chorasi qasdan sodir etilib uch yildan ortiq bo'lmagan va ehtiyotsizlikdan 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga omq jazosi qo'llinishi mumkin bo'lgan holda ham qo'llanilishi mumkin.

Italiyada esa 275-moddaning 3-bandiga ko'ra qamoqqa olish ehtiyot chorasi faqat boshqa choralarning yetarli emasligi isbotlansa qo'llanilishi keltirilgan. Biroq 3-bis bandiga ko'ra sudya uy qamog'i va elektron bilaguzuk jazosini birlashtirganda ham yetarli emasligini isbotlab berishi kerak. Lekin xuddi shu moddaga muvofiq terrorizm yoki mafiya ya'ni jinoiy guruh uyushma bilan bog'liq jinoyatlarda yetarlicha dalil bo'lsa avtomatik ravishda qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llaniladi, faqatgina ayblanuvchi kuchli dalil keltirsagina bu chora o'zgarishi mumkin. 275-moddaning 4-bandiga ko'ra 6 yoshgacha bolasi bor onalar, homiladorlar va 70 yoshdan oshganlar uchun qamoqqa olish qo'llanilmaydi. Faqat yetarli asoslar mavjud bo'lganda qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jpkning 238-moddasida⁴¹ surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ehtiyot chorasini qo'llayotgan aybning og'irligini, ayblanuvchining shaxsini, mashg'ulot turini, yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olishi kerakligi aytilgan lekin Italiyaniki kabi qamoqqa olish uchun aniq istisnolar belgilanmagan.

Bundan tashqari OITS va shunga o'xshagan kasallikka chalingan shaxslarni qamoqda saqlash mutlaqo taqiqlanadi, ular maxsus markazlarga va kasalxonalarga jo'natiladi.

O'zbekiston JPKning 242 prim 1-moddasiga ko'ra⁴², uy qamog'i, sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganda uning yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olib qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilsa qo'llaniladi. Italida 275-bis moddada esa uy qamog'ini tayinlashda sud elektron vositalarni ya'ni elektron bilaguzukni qo'llashi mumkin, lekin bu uchun ayblanuvchining roziligi kerak, agar ayblanuvchi rozi bo'lmasa unda u to'g'ridan-to'g'ri qamoqqa yuboriladi. Ya'ni Italiyada ayblanuvchi yoki bilaguzuk bilan uy qamog'ida o'tiradi yoki qamoqqa olinadi. Ozb Resda jpkning 242 prim 1 –moddasiga ko'ra zarur hollarda elektron kuzatuvdan ham foydalanilishi mumkin lekin bu elektron bilak uzukni nazarda tutmaydi va elektron kuzatuv uchun bizda ayblanuvchining roziligi kerak emas. Shuningdek, 284-moddaga ko'ra, agar ayblanuvchi o'zining kundalik ehtiyojlarini boshqa yo'l bilan ta'minlay olmasa sud uni kunning ma'lum bir vaqtida ishlash yoki ehtiyojlarini qondirish uchun uydan chiqishga ruxsat berishi mumkin. Prokuror va jinoiy politsiya idorasi istalgan vaqtda aybalanuvchining majburiyatlarini bajarayotganligini tekshirishi mumkin. Bundan tashqari uy qamog'ida saqlashish muddati ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash

⁴¹ <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=238%2Dmodda.%20Ehtiyot,ham%20hisobga%20oladi>.

⁴² <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=2421%2Dmodda.%20Uy,21/664/0014%2Dson>

muddatiga tenglashtiriladi. Oxirgi 5 yilda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq jinoyat sodir etgan shaxslarga uy qamog'i qo'llanilmaydi.

Bizning qonunchiligimizga ko'ra, ya'ni 242 prim 1-moddasiga muvofiq, uy qamog'i belgilangan shaxslarga ishlash uchun ruxsat berilishi haqida qoida belgilanmagan, lekin Italiyada agar ayblanuvchi ehtiyojmand bo'lsa, ishlashga ruxsat etilishi haqida qoida belgilangan.

Italiya JPK ning 276-moddasiga ko'ra agar shaxs uy qamog'i tartibini buzsa, masalan uydan ruxsatsiz chiqsa unda ehtiyot chorasi qamoqqa olishga o'zgartiriladi, faqat jinoyat ijtimoiy xavfi katta bo'lmasa istisno qilinihsi mumkin. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra 242 prim 1-moddaga ko'ra agar shaxs uy qamog'i tartibini buzsa unda qamoq chazosiga o'zgartirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Italiya JPksining 281-moddasiga ko'ra mamalakatdan chiqishni taqiqlash majburlov chorasi ham bor, bunda mamlakatdan chiqishni taqiqlash haqidagi qarori bilan sud ayblanuvchiga ishyuritayotgan sudning ruxsatisiz Italiya hududini tark etishni chegaralaydi, ushbu qaror ijrosini ta'minlash uchun passport va boshqa chet davlatga chiqish uchun amal qiladigan boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Ushbu qoida bizning qonunchiligimizda ham bor ya'ni 254 prim 7-moddaga muvofiq O'zbekiston respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklashning bir nechta asoslari mavjud, xususan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmagan, O'zbekiston hududidan chiqib ketib, surishtiruvdan, dastlabki tergovdan yoki suddan uzrli sabalarsiz bo'yin tovlashi mumkin deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Italiya JPKning 282-moddasiga ko'ra shunday ehtiyot chorasi bor ya'ni shaxsning erkinliklarini butunlay cheklamagan holda, ayblanuvchi ustidan doimiy huquqiy nazorat o'rnatishni nazarda tutadi, bunga ko'ra, ayblanuvchiga qamoq yoki uy qamog'i kabi choralar qo'llanilishi o'rniga, u ozodlikka chiqariladi, lekin doimiy ravishda ayblanuvchining uyiga yaqin bo'lgan politsiya bo'limiga borib, o'sha yerda ekanligini tasdiqlab imzo qo'yib ketishi kerak bo'ladi. Bu esa shaxsning qochib ketmasligini oldini olish uchun qo'llaniladi. Ushbu moddaning 2-qismiga ko'ra, shaxs ishda bo'ladigan vaqtda chaqirilmaydi, balki ishdan keyin yoki dam olish kunlari kelishi belgilanadi, bu, albatta, insonparvarlik tamoyiliga to'g'ri keladi. Shuningdek, politsiya idorasi ayblanuvchi yashaydigan hududga yaqin joyda joylashgan bo'lishi kerak. Bizda bu qoida yo'q lekin buning o'rniga bizda "munosib xulq-atvorda bo'lish bo'yicha tilxat", yoki uy qamog'i tayinlanishi mumkin.

Bundan tashqari yuqorida aytib o'tganimdek, 285 bis moddaga ko'ra homilador ayollarga, 6 yoshgacha farzandi bo'lgan ayollarga bo'lgan onalarga, onasi vafot etgan bo'lsa otalarga qamoqda saqlash bilan bog'liq ehtiyot chorasini qo'llashni istosna etadi faqat og'ir holatlardagina sud ularni yengillashtirilgan saqlash tartibi o'rnatilgan maxsus muassasalarga joylashtirishi mumkin. Bizda bu qoida yo'q, lekin ehtiyot chorasi belgilanayotganda, albatta shaxsning oilaviy ahvoli, yoshi va boshqa holatlari e'tiborga olinadi. 286-moddaga ko'ra esa, agar qamoqqa olinishi kerak bo'lgan shaxsning ruhiy holati yaxshi bo'lmasa, sud qamoq

o'rniga uni psixatriya shifoxonasining tegishli bo'limiga vaqtinchalik joylashtirishni buyurishi mumkin. Bunda uning qochib ketishini oldini olish bo'yicha zarur choralar ko'riladi, shaxs tuzalgach uni shifoxonada saqlash to'xtatiladi.

Bizning qonunchiligimizga ko'ra ham ruhiy kasal shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanilishi tartibi mavjud. O'zbekiston respublikasi JPksining 265-moddasiga muvofiq⁴³, agar sud-tibbiyot yoki sud-psixatria ekspertizasini o'tkazishda ayblanuvchini, sudlanuvchini statsionar ko'rikdan o'tkazish zarura vujudga kelsa, ular tegishli tibbiy muassasaga joylashtirilishi mumkin. Shuningdek ruhiy holati ayblanuvchi tariqasida jalb etish va ayblov e'lon qilinishini istisno etsa, bu holatda gumon qiluvchini ham, agar uning ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgani bo'yicha yetarli dalillar mavjud bo'lsa, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy psixatriya muassasiga joylashtirilishi mumkin. Shaxs tibbiy muassasaga ko'pi bilan bir oy muddatga joylashtirilishi mumkin, faqatgina alohida hollarda ushbu muddatni sud tomonidan yana bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

O'zbekiston JPksining 255-moddasiga ko'ra⁴⁴ agar ayblanuvchi, sudlanuvchhi o'z ish joyida qolsa, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga yoki jinoyat oqibatida yetkazilgan zarani o'rnini qoplashga to'sqinlik qiladi yoki jinoiy faoliyatini daavom ettiradi deb hisoblash uchun asoslar yetarli deb hisoblansa, u lavozimidan chetlashtirilishi mumkin. Italiya Jpk sining 290-moddasiga ko'ra, yuridik shaxslar yoki kompaniyalarda muayyan rahbarlik lavozimlarini egallash, faoliyat yuritishni taqiqlash to'g'risidagi qaror orqali sud ayblanuvhcini ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqidan to'liq yoki qisman vaqtincha mahrum qilishi mumkin. 2-qismiga ko'ra esa jinoyat jamoat xavfsizligiga, iqtisodiyotga, sanoat yoki savdoga qarshi jinoyatlarga oid bo'ladigan bo'lsa unda jazo muddatidan qat'iy nazar ushbu muayyan kasbiy yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni vaqtincha taqiqlash chorasi qo'llanilishi mumkin. Italiya jpksining keyingi moddalarida xususan 292-moddasida sud ajrimi haqida qoidalar belgilangan ya'ni sud prokurorning ehtiyot chorasini qo'llash bo'yicha iltimosnomasi bo'yicha asosli, qonuniy, adolatli ajrim chiqarishi kerak. Ajrimda ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar, sodir etilgan jinoiy qilmishni qisqacha tavsifi, buzilgan qonun normalari, dalillar, ehtiyot chorasining amal qilish muddati, himoya tomonidan taqdime tilgan dalillarning nima uchun inobatga olinmaganligining asoslar, sana va imzo ko'rsatilishi kerak, agar ushbu ma'lumotlardan birontasi bo'lmasa, ajrim o'z-o'zidan haqiqiy emas sanaladi. Qamoqqa olish haqidagi ajrimni ijro etish bo'yicha ayblanuvchiga qaror nusxasi va uning huquqlari yozilgan yozma bildirishnoma berilishi kerak, agar ayblanuvchi italyan tilini bilmasa, bildirishnoma u tushunadigan tilga tarjima qilinadi. Italiya qonunchiligiga ko'ra, aniqrog'i 309-moddaga muvofiq, ayblanuvchi ehtiyot chorasi

⁴³ <https://lex.uz/docs/-111460#-256416~:text=265%2Dmodda.%20Sud%20ekspertizasini%20o%CA%BBtkazish%20uchun%20shaxsni%20tibbiy%20muassasaga%20joylashtirish%20asoslari%20va%20muddatlari>

⁴⁴ <https://lex.uz/docs/-111460#-256416~:text=255%2Dmodda.%20Ayblanuvchini,lavozimidan%20chetlashtirilishi%20mumkin.>

qo'llanilgan kundan boshlab 10 kun ichida uni qayta ko'rib chiqishni so'rashga haqli, Appellatsiya uch nafardan iborat hay'at tomonidan amalga oshiriladi. Appellatsiya berilgandan keyin 5 kun ichida tergov organi barcha hujjatlarni va ayblanuvchi foydasiga talqin qilingan dalillarni sudga taqdim etishi kerak, muhokama yopiq sud majlisida o'tkaziladi, ayblanuvchi unda shaxsan qatnashishi huquqiga ega bo'ladi. Hay'at hujjatlarni qabul qilgandan keyin 10 kun ichida qaror qabul qilishi kerak ya'ni ajrimni bekor qilishi, o'zgartirishi yoki tasdiqlashi mumkin agar 5 kun ichida hujjatlar yuborilmasa yoki hay'at 10 kun ichida qaror qabul qilmasa, qo'llanilgan ehtiyot chorasi o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi va shaxs darhol ozod qilinishi kerak.

Endi esa Jinoyat qonunchiligidan kelib chiqib va tepadagilardan xulosa qilib, bir **taklif** bermoqchiman. Bilamizki, O'zbekiston jinoyat potsessual kodeksining 242 prim 1 – moddasiga ko'ra uy qamog'i tayinlangan shaxs jamiyatdan to'liq ajratiladi, xususan muayyan shaxslar bilan aloqa qilishi bo'yicha cheklovlar qo'yiladi, xat-xabar olish va jo'natish, har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish, uy-joyini tark etish taqiqlanadi, hatto tez tibbiy yordamni yoki yong'in xavfsizlik va boshqalar telefon orqali chaqirilganda bu bo'yicha tegishli organlarni ogohlantirib qo'yilishi kerak.

Lekin bizning qonunchiligimizga ko'ra, uy qamog'i belgilangan shaxslarning ishlashi haqida normalar mavjud emas, lekin Italiya qonunchiligiga ko'ra agar ayblanuvchi oilasini boqish uchun boshqa manbaga ega bo'lmasa ya'ni oialada yagona boquvchi bo'lsa unda o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun yoki mehnat faoliyatini davom ettirish uchun sutkaning muayyan vaqtida yashash joyini tark etishga ruxsat berilishi mumkin. Lekin bunda shaxsning, sodir etilgan jinoyatning xususiyati inobatga olinadi. Chunki hali aybi isbotlanmagan shaxsni ham iqtisodiy nochor ahvolga solish bu noto'g'ri deb o'ylayman, italiya qonunchiligiga ko'ra esa ehtiyot chorasi nafaqat ayblanuvchining erkinligini cheklaydi balki uning right to survival ya'ni yashab qolish huquqini ham ta'minlashi kerak. Bundan tashqari agar ayblanuvchi ish faoliyatini davom ettirsa, u davlatga soliq to'lashda ham davom etadi va oilasi ham moddiy yordamga muhtoj bo'lib qolmaydi. Agar shaxs to'liq izolyatsiyada qolsa, bu ruhiy tushkunlikka olib kelib, yana jinoyat sodir etilish ehtimolini ham kuchaytirishi mumkin. Lekin bu imtiyozni hammaga ham emas, balki ayrim toifadagi shaxs va jinoyatlarga nisbatan qo'llashimiz mumkin, bilamiz baribir ijtimoiy xavfliligi katta bo'lgan jinoyatlarga shundog'am qamoq qo'llaniladi, shu uchun uy qamog'i qo'llanilgan lekin, ishlashga muhtoj va qilmishi ham ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ayblanuvchilarga qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Italiyada uy qamog'i belgilanagan shaxslar elektron bilaguzuk yordamida nazorat qilinadi, biz hali rivojlanayotgan devlat bo'lganimiz uchun bizga bu tizim biroz noqulayliklar keltirib chiqaradi deb o'ylayman.



Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi

<https://lex.uz/docs/-111460>

Italiya Criminal Procedure Code

<https://canestrinilex.com/assets/Uploads/pdf/cf70b10e21/Italian-Code-of-Criminal-Procedure-canestriniLex.pdf>

